

**AGROKLASTERLARDA MAHSULOT TANNARXINI
PASAYTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH**

Shoxruxbek Abdullaev

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'jaliklarda xarajatlar tarkibi, ularni turkumlashtirish; ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishning fermer xo'jaliklari uchun ahamiyati va zarurligini asoslab berish; uning dolzarb muammolarini ilmiy o'rganishning metodologiyasini ishlab chiqish; klasterlarda ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish va uni rejalashtirishning optimallashtirish darajasiga baho berish; asosiy omillardan samarali foydalanish asosida o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslab berish kabilar juda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish fermer xo'jaligining mahsulot yetishtirish va realizatsiya qilishga sarflanadigan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi bo'lgan tannarxni aniqlashdan boshlanadi. Tannarxni fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini tarkib topishida tutgan urni va ahamiyati juda kattadir. Mahsulot tannarxini pasayishi mos holda foydani ko'payishiga va iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan rentabillikni ko'tarilishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, xarajatlar tarkibi, tannarx, foyda, rentabellik, agroklastar, fermer xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining agrar sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida fermer xo'jaliklari, agroklastarlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi asosiy sub'ektga aylandilar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida agrosanoat majmuida mahsulot yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanishni to'g'ri tashkil etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bu birinchi navbatda, qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlarining ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan sekin tarzda o'sib borayotgani hamda qo'l mehnatidan keng foydalanilishi unumdorlik darajasini sekin o'sishiga olib kelayotgani bilan bog'liqdir. Ushbu holatlarni e'tiborga olgan holda bugungi kunda agroklastarlarda ishlab chiqarish xarajatlaridan samarali foydalanishni tashkil etish asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tannarxini pasaytirish dolzarb ilmiy tadqiqot muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'jaliklarda xarajatlar tarkibi, ularni turkumlashtirish; ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishning fermer xo'jaliklari uchun ahamiyati va zarurligini asoslab berish; uning dolzarb muammolarini ilmiy o'rganishning metodologiyasini ishlab chiqish; klasterlarda ishlab

chiqarish xarajatlarini tahlil qilish va uni rejalashtirishning optimallashtirish darajasiga baho berish; asosiy omillardan samarali foydalanish asosida o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslab berish kabilar juda muhim ahamiyatga ega.

Agroklaster – qishloq xo'jaligining davlat – ilmiy-tadqiqot – qayta ishlash – biznes kabi subektlarning o'zaro bozor tamoyillariga mos munosabatlarini mujassamlashtirgan subekt hisoblanadi. Agroklasterlar uch xususiyatga asoslanadi:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha hududiy ixtisoslashuv va mahalliyashtirish;

- tarmoqning xo'jalik yurituvchi subektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar;

- turli tarmoqlar o'rtasida qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi texnologik o'zaro aloqalarning shakllanganligi.

Agroklaster qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (tuman fermerlar kengashi va dehqonlar), qayta ishlovchi korxonalarining o'zaro hamkorlikdagi yoki alohida tashabbusi bo'yicha tashkil etiladi. Uni tashkil etishning muhim jihatlaridan biri ishtirokchilarining birgalikdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish – qayta ishlash – sotish – ilmiy-tadqiqot jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan hamkorlikdagi loyihalarni amaliyotda qo'llash orqali bir-birlariga ishonchlarining yuqoriligi hisoblanadi.

Iqtisodiy jihatdan rivojlanish darajasini baholash uchun fermer xo'jaligining o'rtacha 1 gektar ekin maydoniga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish xarajatlari, yalpi mahsulot va foyda kabilarning tahlil davridagi o'zgarishlari ham asos bo'ladi. Fermer xo'jaliklarini istiqbolli rivojlantirish deganda eng avvalo ekin maydonlari o'zgarmagan holda yalpi mahsulot hajmini barqaror o'sib borishiga erishishni tushuniladi. Bunda ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan yalpi mahsulotni ustun darajada oshishi evaziga olinadigan foyda miqdorini, demak iqtisodiy samaradorlikni barqaror oshirish borishni ta'minlash kerak. Iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning navbatdagi bosqichda esa fermer xo'jaliklarini ekin maydonini kengaytirish mo'ljallanadi. Qo'shimcha aylanma mablag'larni ko'paytirish, qishloq xo'jalik texnikalariga ehtiyojni ichki imkoniyatlar hisobiga qondirish, mehnat unumdorligini oshirish ham rivojlanishni ta'minlaydi. Bundan tashqari xo'jalikning mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, qo'shimcha faoliyat sohaslarini, masalan, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik kabilarni qo'shgan holda kengaytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dastlabki qayta ishlash va saqlash tuzilmalarini shakllantirish va boshqalarni tushunishimiz mumkin. Samaradorlik ko'rsatkichlariga shu omillarni hisobga olgan holatda ham baho berish talab qilinadi.

Horijiy tajribalar tahliliga ko'ra, Koreyada agroklasterlarni rivojlantirish zaruriyati asosan quyidagi omillar bilan belgilanganligini ta'kidlagan holda O'zbekiston sharoitida ham ularni inobatga olish mumkin. Jumladan:

- qishloq xo‘jaligiga davlatning amaliy yordami va qo‘llab-quvvatlashi hamda islohotlarni amalga oshirishda yetakchiligi;
- tarixiy va milliy an‘analardan foydalanib, ularni saqlab qolish, zamonaviylashtirish asosida yangi yo‘nalishlar, masalan agroturizm, mehmonxona xizmati kabilarni shakllantirish;
- hududiy ixtisoslashuv, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanish barqarorligini ta‘minlash;
- davlat – universitet – ilmiy-tadqiqot – fermer – qayta ishlash – biznesning birgalikda faoliyat yuritishining o‘zaro mutanosibligini ta‘minlash mexanizmi;
- olimlar mavqei va ilmiy-tadqiqot natijalarining samarali ekanligi hamda ularni qo‘llab-quvvatlashning davlat siyosati darajasidagi mavqeining yuqoriligi;
- yuqori innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga ustuvorlik berilishi va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmining shakllanganligi;
- marketing tizimi rivojlanganligi, inson kapitaliga munosabatning yuqoriligi va uni qishloqda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi. Kapitalning konsentratsiyalanish miqyosi ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash imkoniyatlariga ko‘ra bunday tuzilmalar bozor konyunkturalari tebranishlarida kuchli barqarorlik kasb etadi, u investitsiya resurslarini samarali taqsimlashga qodir, ularni eng rentabelli yo‘nalishlarga jamlay oladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida yetishtirgan mahsulotlarni sotishga Qishloq xo‘jaligi vazirligining, fermer xo‘jaliklari kengashining joylardagi tegishli bo‘limlari hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar amaliy yordam berishlari zarur. SHu bilan birga, qishloq xo‘jalik korxonalarida bozorni o‘rganib, savdo-sotiq ishlarini rivojlantiradigan marketing bo‘limlarini tashkil etilishiga va ularni samarali faoliyat ko‘rsatishlariga alohida e‘tibor berish lozim.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida ishlab chiqarishni samarali rivojlanishini ta‘minlash maqsadida yetishtirgan mahsulotlarining ma‘lum qismini o‘zlari takror ishlab chiqarish maqsadida urug‘likka, ko‘chat yetishtirishga, yemga, ozuqaga sarflaydi, ishchi-xizmatchilarini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ish haqi hisobidan umumiy ovqatlanishga o‘tkazadi. Bularning hammasi hozircha mahsulot tannarxida o‘z aksinini topmoqda. Hozirgi kunda fermer xo‘jaliklari aholini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida iqtisodiy nochor oilalarga, keksalarga va bolalar uylariga o‘z mahsulotlarining bir qismini xayriya sifatida ham bermoqdalar. Ushbu jarayonlar malumki fermer xo‘jaliklariga xech qanday daromad keltirmaydi.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda qiymat ko‘rsatkichlarining tutgan o‘rni beqiyos darajada kattadir. Qiymat ko‘rsatkichlari jumlasiga yalpi mahsulot, baho, tannarx, ishlab chiqarish xarajatlari, foyda kabi iqtisodiy kategoriyalar hamda ularni yer birligi va xodimlarga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatkichlari kiradi.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ichida rentabellik darajasi alohida o'rin tutadi. U daromadlar bilan xarajatlarni taqqoslash yo'li bilan aniqlanib, bir so'mlik xarajat hisobiga olingan foydani aks ettiradi. Rentabellik samaradorlikning yakunlovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Undan fermer xo'jaligini yillar bo'yicha iqtisodiy samaradorligini aniqlashda va boshqa xo'jalik yuritish sub'ektlari bilan taqqoslashda keng foydalaniladi. Rentabellik foydalanish va qo'llash jihatidan sodda va qulay iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanib, undan ilmiy tadqiqotda va amaliyotda keng qo'llaniladi. Biz ham fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda rentabellik darajasidan keng foydalandik.

Har qanday qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish uchun moddiy-texnika resurslaridan, yer, suv va mehnat resurslaridan foydalaniladi.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish fermer xo'jaligining mahsulot yetishtirish va realizatsiya qilishga sarflanadigan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi bo'lgan tannarxni aniqlashdan boshlanadi. Tannarxni fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini tarkib topishida tutgan urni va ahamiyati juda kattadir. Mahsulot tannarxni pasayishi mos holda foydani ko'payishiga va iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan rentabellikni ko'tarilishiga olib keladi. SHu sababli mahsulot tannarxi eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, u fermer xo'jaligining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining ijobiy yoki salbiy tomonlarini o'zida aks ettiradi.

Xo'jalikda iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning asosiy omillardan biri ishlab chiqarish xarajatlaridir. Mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish xarajatlari qancha kam bo'lsa, samaradorlik shuncha yuqori bo'ladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishida yangi samarali texnologiyalarni qo'llanilishi ham o'zining mos holdagi samarasii beradi.

Fermer xo'jaligida o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar vositasida birlamchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini va ularning ayrimlarini o'zgarishining sabablari yuqorida tahlil etilgan. Jumladan, yerlarning melorativ holatini yaxshilash asosida tuproq unumdorligini keskin oshirish hozirgi kunda o'ta dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va sifatini yaxshilash asosida fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini keskin ko'tarish imkoniyatlarini yaratadi.

Izlanishlar yakunlari bilan tayyorlangan ilmiy-amaliy tavsiyalar, jumladan, respublikamizda agroklastarlarda meva-sabzavotlarni qayta ishlashda o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq faoliyatlari, amal qilish qonuniyatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillarni baholash uslublari yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar mazkur soha rivoji uchun bilimlar va ko'nikmalarning boyishiga xizmat qilsa, ushbu yo'nalishlardagi viloyat va tuman

dasturlarini ishlab chiqishda, amaliy chora-tadbirlar tizimini belgilashda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Olingan ilmiy natijalar raqamli iqtisodiyot sharoitida meva-sabzavotlarni qayta ishlash klasterida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini optimallashtirish muammolariga yechim topishga imkon beradi. Ishlab chiqilgan takliflar ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish muammolarini o‘rganish uchun qo‘llanma sifatida foydalanilishi mumkin. Shuningdek, mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda meva-sabzavotlarni qayta ishlash klasterida iqtisodiy samaradorlikni oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko‘lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – ayrim mahsulotlar, jumladan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini moddiy-texnika bazasining talab darajasida emasligi, mahsulot ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini va tarmoqni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini bozor talablariga mos holda yanada takomillashtirishni zarurligi hamda tarmoq ishlab chiqarishida yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llashni yetarlicha rag‘batlantirilmasligi mahsulot ishlab chiqaruvchilar va uni qayta ishlovchilar hamda uni savdosi bilan shug‘ullanuvchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni nomukammalligi va boshqa shu kabi masalalar tarmoqni barqaror rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Fermer xo‘jaligi mevachiligida samarali natijalarga erishish uchun eng avvalo meva yetishtirish uchun sarflanadigan o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlardan o‘z o‘rnida va samarali sarflanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fermer xo‘jaliklarida o‘zgaruvchan xarajat tarkibidagi ish haqi xo‘jalik xodimlarining moddiy manfaatdorligi va javobgarligini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Ammo, ularning asosiy moliyaviy natijalari bozor iqtisodiyoti qonunlari, mexanizmlari va kategoriyalari talablariga to‘laroq javob bermaydi. Mavjud kamchiliklarni keskin kamaytirish maqsadida tarmoqda bozor iqtisodiyoti islohotini yanada chuqurlashtirish zarur. Dastavval, sotish baholarini erkin shartnoma asosida tashkil topishiga, paxtakorlarni mehnat natijalariga qarab kafolatlangan haq to‘lanishiga erishish lozim.

Har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt, jumladan fermer xo‘jaligi uchun mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini izlab topish iqtisodiy samaradorlik nuqtai-nazaridan muhim hisoblanadi. Chunki, mahsulot tannarxi qanchalik arzon bo‘lsa, shunchalik xo‘jalik oladigan foyda miqdori oshib boradi. Bu esa o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajat turlarining samarali nisbatiga bog‘liqdir.

Mahsulot tannarxini pasaytirish yo‘llari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mehnat sarfini kamaytirish;
- ishlab chiqarishga yuqori unumli, ishonchli va arzon ishlab chiqarish vositalarini joriy etish;
- yer, asosiy va aylanma fondlardan oqilona va samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishning material sig‘imini kamaytirish va tejamkorlikka erishish;
- mashina va texnikalarning kunlik va yillik ish unumini ko‘tarish;
- resurslarni tejovchi va chiqitsiz texnologiyalardan keng foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning ilg‘or shakllaridan foydalanish;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish;
- mahsulotlar sifatini oshirish va nobudgarchilik, yo‘qotishlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- eng yaxshi ekin navlaridan foydalanish.

Mamlakatimizdagi iqtisodiyotni modernizatsiyalash tadbirlarini qishloq xo‘jaligida amalga oshirishda asosiy xo‘jalik yuritish shakli hisoblangan fermer xo‘jaliklarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil etish uchun iqtisodiy samaradorlikni yakuniy ko‘rsatkichi hisoblangan rentabellik darajasi kamida 35-40 foiz bo‘lishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida fermer xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni nafaqat optimal darajaga yetkazish, balki, undan ham yukori darajalarga ko‘tarish bilan bog‘liq bo‘lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Lekin, yuqorida keltirilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosidagi erishilgan samaradorlik ko‘rsatkichlari xali talab darajasida emas. Shuning uchun ham samaradorlikni optimal darajaga yetkazish chora tadbirlarini ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmoni. Toshkent, 2019-yil 23-oktyabr
2. Nosirov B., Rakhmonova B. Organization of production of walnuts in an industrial volumes. International online conference ECLSS Economics and Social sciences. Proceeding book. June 28-29, 2020. Istanbul, Turkey. P. 59-67. <http://eclss.org/publicationsfordoi/istanbulonline.pdf>
3. M.N. Yusupova, B.Z. Nosirov. Pests of cotton and straw control at collection. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Volume: 6. Issue: 12. December 2020. P. 57-61. DOI: 10.36713/epra2013
4. *B.Nosirov, Sh.Tulakov*. Opportunities to increase land efficiency in farming. Innovative Technologica: Methodical Research Journal (IT). ISSN: 2776-0987. Volume 2, Issue 5, May, 2021. 175-179. <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/84>
5. *B.Nosirov, Sh.Abdullaev, H.Yuldasheva*. Relevance of development of multiple-profile farms. International journal for innovative Engineering and Management Research

- (IJIEMR). 2021. Volume 10, Issue 03, Pages: 516-521. ISSN 2456-5083. <https://ijiemr.org/public/uploads/paper/638741617019191.pdf>
6. Nosirov B. Z., Ergashev A. A., Islamova D. T. Development prospects of food markets in Andijan province // THEORIA: педагогика, экономика, право. 2020. №1 (1). URL: <https://theoria.apni.ru/article/17-development-prospects-of-food-markets>
 7. B.Z.Nosirov, Peculiarities of formation and development of the regional food market (on example of Andijan region. Abstract of the diss. for PhD. T.: SISM, 2004.
 8. B.Nosirov. Some problems of development of livestock industry. Science and education in agriculture. Volume 1, Issue 2. 2022. <https://www.seagc.andqjai.uz>
 9. B.Nosirov. Features of development of livestock industry in the field of food security. Sustainable agriculture. 3(15).2022. p.17-20. <http://sa.tiame.uz/en/page/axiv>
 10. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rahmonova. Properties and potential of walnut growing in Uzbekistan. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, Volume 6, Issue 5, Page No. 140-146. ISSN : 2581-4230, <https://journalnx.com/papers/20150963-potential-of-walnut.pdf>
 11. B.Nosirov. Basis for the development of the regional food market. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume 1(11), 2021. p.65-71.
 12. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rakhmonova. Organization of walnut production based on the industrial method in Uzbekistan. Sustainable agriculture. 2(6).2020. p.24-26. <http://sa.tiame.uz/en/page/axiv>
 13. *B.Nosirov, M.Mirzakarimov*. Features of development of milk production in Uzbekistan.The scientific heritage. No 91 (2022) p.32-35. ISSN 9215-0365. <https://zenodo.org/record/6695687#.Yri0UXZBzIU> DOI: 10.5281/zenodo.6695687 .
 14. *B.Nosirov, M.Qobulova, D.Islamova*. Opportunities of improving economic indicators in fruit production.Interdiscipline innovation and scientific research conference: a collection of scientific works of the International scientific online conference (15th December, 2022) – Great Britain, London : "CESS", 2022. Part 4. P. 45-48. <https://interonconf.net/>
 15. *B.Nosirov*. Some problems of development of livestock industry. .Science and education in agriculture. 2022. Volume 1, Issue 2. P.18-25. <https://www.seagc.andqjai.uz>
 16. *B.Nosirov, A.Raximov*. Development of wholesale food markets.American Journal of Science and Learning for Development. Volume 2, No 1. Jan-2023. P. 47-50. ISSN: 2835-2157. <http://inter-publishing.com/index.php/AJSLD/article/view/898>
 17. *B.Nosirov, D.Fakhriddinova* . Reducing the cost of products in agroclusters in the digital economy. Journal of New Century Innovations. Volume 23, No 2. February-2023. P. 19-24. <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3748/3539>
 18. *B.Nosirov, A.Abdurashidov*. Development of elements of food markets.Web of scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979. Volume 4, Issue 3, 2023. P. 881-886. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3544/3398>